UDK: 330.1:314.1 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a185**

MILLIY YUKSALISH KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

КОНЦЕПЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО РОСТА ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА РЕАЛИЗАЦИИ

THE CONCEPT OF NATIONAL GROWTH THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF IMPLEMENTATION

Mavlonov Ilxomjon Xolmirzayevich[1]

[1]**Mavlonov Ilxomjon Xolmirzayevich** – Qo‘qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning ahamiyati, jamiyatdagi yuksalish shaxslarni yaratuvchanlik faoliyatini sohalarga samarali tadbiq qilish orqali milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichiga xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida jamiyat rivojini ta’minlashga xizmat qiluvchi dasturlarni ishlab chiqish bilan ijtimoiy muammolarning oldini olish ustuvor vazifalar to‘g’risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье важность реализации концепции национального подъема, подъема в обществе выступает этапом национального подъема от национального возрождения путем эффективного применения творческой деятельности отдельных лиц на местах. В свою очередь, речь идет о разработке программ, которые служат обеспечению развития общества и предупреждению социальных проблем.

Abstract

In this article, the importance of implementing the concept of national rise, the rise in society serves the stage of national rise from national revival by effectively applying the creative activities of individuals to the fields. In turn, the development of programs that serve to ensure the development of the society and the prevention of social problems are discussed.

Kalit so‘zlar: *milliy yuksalish konsepsiyasi, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta’lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta’lim standartlari, fuqarolik jamiyati, ilmiy-metodik.*

Ключевые слова: *концепция национального роста, новое развитие, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное образование, индивидуальные качества, всесторонняя личность, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методология.*

Key words: *concept of national growth, new development, modern outlook, scientific-theoretical views, continuous education, individual qualities, well-rounded person, educational standards, civil society, scientific-methodology.*

KIRISH

Hozirgi faylasuf olimlar tadqiq etayotgan milliy yuksalish hamda ularning ijtimoiy-madaniy asoslari xalqning moddiy va ma’naviy farovonligini, o‘ziga xos madaniyati va istaklarini ta’minlashda aynan shaxsning tafakkuri rivoji, inson kapitali bilan chambarchas bog‘liq muammolarni ilmiy asosda o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy yuksalish tadqiqotining nazariy-metodologiya asoslari mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini falsafiy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarbdir. Mazkur bobda milliy yuksalish muammosini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari jamiyatdagi zaruratidan kelib chiqqan holda ijtimoiy-falsafiy tadqiqi o‘rganilgan. Uning ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, milliy yuksalishning nazariy-metodologik jihatlari yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatning ijtimoiy-madaniy darajasiga bog‘liqdir.

Milliy yuksalish jarayonining evolyutsion falsafiy tahlili jamiyatning rivoji va farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalar va loyihalarni ishlab chiqish, uning har bir sohalarga oid konsepsiya, dasturlarni yaratish, ijtimoiy muammolarni oldini olish kabi ratsional faoliyatni kasb etadi.

Bugungi kunda milliy taraqqiyot masalalariga oid muammolarning holisona hal etish nafaqat davlat siyosatining muhim tamoyili sifatida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa, soha olimlari tomonidan ham jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Negaki, «milliy taraqqiyot va

ma’naviy yuksalish jarayoni»ni o‘rganishga doir turli xil ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimini ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq qilish, uni amaliy hayotga joriy etish zarurati butunjahon miqyosida milliy nizolar avjiga chiqqan bir paytda dolzarb ahamiyatga ega masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Kishilik jamiyati hech qachon bir tekis va silliq rivojlanmagan. Taraqqiyot ortidan inqirozlar, yutuqlar ketidan mag‘lubiyatlar, farovonliklar izidan zavolga yuz tutishlar ta’qib etgan. Muayyan jamiyat iqtisodiy-siyosiy, axloqiy-diniy, badiiy-estetik taraqqiyot borasida inqirozga duch kelar ekan, undan chiqib ketish uchun ilg‘or falsafiy ta’limotlarga ehtiyoj sezadi. Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo‘yilaveradi. Ularni o‘rganish jarayonida davlat, jamiyat taraqqiy etib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rim imperiyasi zavolga yuz tutganidan keyin o‘z milliy davlatchiligiga ega bo‘lgan Yevropa mamlakatlarida, o‘rta asrlarga kelib, milliy taraqqiyot yaratish imkoni tug‘ildi. To‘g‘ri, ular umumevropa hududida, Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati negizida shakllandi. Ularda Yevropa xalqlariga xos umumiy jihat va xususiyatlar, umumetnik mentalitet aks etgan edi. Bu jarayon, avvalo, Italiya va Angliyada, so‘ngra Fransiyada yuz berdi.[1]

Milliy taraqqiyot va ma’naviy yuksalish jarayonining ijtimoiy-falsafiy negizlarini, tarixiy rivojlanish bosqichlarini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, Sharq va G‘arb falsafiy tafakkuri rivojida o‘ziga xos o‘rin tutib, asta-sekinlik bilan bugungi zamonaviy ko‘rinishigacha bo‘lgan murakkab bosqichni bosib o‘tganligini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, mazkur muammo R.Dekart, B.Spinoza, I.Kant, I.Fixte, G.Gegel kabi Yevropa faylasuflarining asarlarida alohida mavzu sifatida o‘rganila boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin.[2] Ular, avvalambor, o‘z yurti, millati sha’n-u sharafini yuksaklikka ko‘tarish, taraqqiyotga olib chiqish uchun ilg‘or g‘oyalarni o‘rtaga tashlagan, davr taqozo etgan mafkuraning shakllanishiga hissa qo‘shgan.

Biz yashayotgan dunyo so‘nggi yillarda nihoyatda o‘zgarib ketdi. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida olamshumul voqealar yuz berdi: mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanladi, rivojlanishning o‘zbek modelini amalga oshirishga kirishdi. Xalqimizning huquqiy demokratik jamiyat barpo etish zarurati dunyoqarashni tubdan o‘zgartirish, eski aqidalardan tamoman voz kechish, istiqlol mafkurasini shakllantirish, xalq ma’naviyatini yuksaltirishni taqozo etdi.[3]

Milliy tiklanish, taraqqiyot va yuksalish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarini:iqtisodiyotni ham, siyosiy faoliyatni ham, ma’naviyatni ham, ilm-fan, til, tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me’morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Milliy tiklanishga birdaniga erishib bo‘lmaydi. Milliy tiklanish uzoq davom etadigan, ko‘p yillarni o‘z ichiga qamrab oladigan murakkab davrdir. Zero, ushbu davrda to‘plagan tajribamiz bir haqiqatni yaqqol isbotlab bermoqda: taraqqiyotga – faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi. Shu bois, pandemiya, dunyodagi chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ziddiyatlarga qaramasdan, xalqimizning qahramonlarcha mehnati bilan erishgan ayrim yutuqlarimizni aytib o‘tishni o‘rinli, deb bilaman.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar xalqimizning milliy o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirmoqda. Shu ma’noda, milliy taraqqiyot va ma’naviy yuksalish jarayoniga ta’sir etuvchi ob’yektiv shart-sharotlar va subyektiv omillarni ilmiy asosda o‘rganish masalasi bugungi kunda tadqiqotchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ma’naviy yuksalish milliy taraqqiyotning asosi ekanligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy tadqiq etish o‘z navbatida milliy taraqqiyot modellarining xilma-xilligini ham qamrab oladi. Shu bois ma’naviy yuksalish jarayonlari mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish bilan bevosita bog‘liqdir.[4]

Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixida o‘chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli O‘zbekiston o‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda.

NATIJALAR

Bugun jonajon O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya asosida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo‘ymoqda.[5] Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug‘ bo‘lgan diyor – Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi dastlabki natijalardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom

ettiramiz va oldimizga qo‘ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz. Bu xalqimizni birlashtiradi, buzg‘unchi g‘oyalar mohiyatini tushuntirdi. 2017-yildan boshlab O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Konstitusiyamizga asoslangan, xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalda. Keyingi yillarda erishilgan yuksak marralar xalqimizni baxtli qilishga qaratilgan islohotlar samaralarini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi bu o‘zgarishlarni yanada teranroq anglashimiz, idrok etishimizda muhim ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbarining har bir so‘zlari xalqimiz qalbida iftixor tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdirdi. Shubhasiz, bundan ruhlangan xalqimiz davlatimizning har qarich yerida yuksalish davri bo‘lishi uchun azm-u qaror qilmoqdalar.

Muhtaram yurtboshimiz nutqida ta’kidlaganidek, milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko‘tarishni tushunamiz. Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida bo‘layotgan katta o‘zgarishlar hayotimizda muhim voqelikka aylanmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha o‘ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh ijobiy tashabbus” kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o‘ynamoqda.[7] Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham me’moriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligi yuksaltirilmoqda.

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan g‘oya bu jarayonda asosiy yo‘naltiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g‘oya xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Endi gap milliy g‘oyani har bir o‘zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo‘l ochadi. Axborot maydonini nuqul negativ kontent egallab olmasligi uchun pozitiv, yaxshi, nekbin mazmun, mavzular bilan mutanosib to‘ldirishga alohida e’tibor qaratmog‘imiz zarur. Negaki, biz kattalar ham, bolalarimiz ham har kuni yaxshi-yomon fikrlardan ta’sirlanamiz. Bir-birimiz bilan ijtimoiy tarmoqda tortishamiz, aytishamiz, urishamiz. Lekin biz bularning negativ fikrlardan boshlangan g‘oyalar kurashi ekanligini anglamaymiz.

G‘oyaviy birlik odamlarning qaysi xatti-harakatlarida ko‘rinadi? O‘zaro mehribon, hamfikr va bir-birini qo‘llab-quvvatlayotganida, ishda, o‘qishda, innovatorlikda, tadbirkorlik, ilm, ijodda faolliklarida va buni milliy g‘oyaga bog‘lab tushunishlarida, oila, ishxona, real va virtual hayotda o‘zaro ahilliklarida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, milliy g‘oya ro‘yobiga xalaqit beruvchi buzg‘unchi g‘oyaga qarshi tez va uyushishlarida. Masalan, 2019-yil aprel-may oylarida davlat tili bo‘yicha boshlangan xeshteg bizning birlasha olishimizni ko‘rsatdi. Baxtli, hayotdan rozi bo‘lishiga ishonchida, so‘z va amal birligida ham milliy g‘oya yaqqol ko‘zga tashlanadi. Demak, ma’naviyat va ma’rifat, mafkuraviy tarbiya O‘zbekistonning turli millat, din, kasb, yoshlarga mansub xalqini g‘oyaviy qurollantiradi. Islohotlar nima uchun, kim uchun kerakligini xalqqa uning orzulari bilan bog‘lab uqtiradi, ko‘rsatadi. Tushungan xalq – g‘oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. Har birimizdan Vatanning bir farzandi sifatida o‘z lavozimimizga munosib bo‘lib ishlash va yashash burchini eslatadi. O‘z milliy g‘oyasini anglagan xalqni to‘xtatib bo‘lmaydi. Bunda keng jamoatchilikdan katta jasorat va matonatni talab etadi.

Bugun Vatanimiz intilayotgan milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, maqsad va vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hujjatlarda aniq belgilab berildi. Ularda jahondagi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyat, rivojlanish tendensiyalari, istiqboldagi taraqqiyot yo‘llari chuqur tahlil etilgan.

O‘zbekistonda ayni shu asosda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada liberallashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi ekani haqidagi Konstitutsiyaviy tamoyil asosida xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish, odamlarda faol fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirish, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatda adolat ustuvorligini ta’minlash, huquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish bo‘yicha muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Zero, “mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog‘onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o‘zgarishi kerak. Agar shunday qilmasak, muammolarni ko‘rib, ko‘rmaslikka olsak, zamondan orqada qolamiz. Xalqimiz, yosh avlodimiz bizdan rozi bo‘lmaydi. Shu bois,“Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat”degan g‘oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo‘lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o‘tishga qodir bo‘lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur”.[7] Bu esa, hozirgi davr shiddatli va ko‘p tomonlama rivojlanishni taqozo etayotgan, davlat va jamiyat hayotini ma’lum bir kuchli ta’sir obyektiga aylantirishga moyil bo‘lgan globallashuv davrida juda muhimdir. Davr o‘ziga xos g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liq holda rivojlanib, o‘zgarib kelmoqda. Jahonda bo‘layotgan bunday o‘zgarishlarning turli g‘oya va mafkuralar maydonida kuchli ta’sirga ega bo‘lmoqda. O‘z navbatida yoshlar ongi va qalbini egallashga, ularning ishonchi va xohish-irodalariga turli-xil usul va vositalarda ta’sir ko‘rsatishda namoyon bo‘lmoqda.

MUHOKAMA

Milliy yuksalishning evolyutsiyasi ong darajasi bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Ong darajalari tasavvuf ta’limotida ruhiy borliq darajalariga mos keladi deb bayon etiladi.[8] Har bir inson o‘z hayoti mobaynida borliqni va o‘z – o‘zini anglash jarayonini boshdan kechiradi. Ayni shu tufayli ham u o‘simlik va hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan va uning aqli asosan shu dunyoga moslashuv quroli vazifasini o‘taydi. Evolyutsiya maqsadini to‘liq amalga oshirmoq uchun faqat bir ikki guruh kishilar emas, balki butun insoniyat ongning yuqori pog‘onalar sari tinimsiz ko‘tarilishi kerak. Evolyutsiyaning dastlabki pog‘onalarida, ayniqsa, inson hayvonot dunyosidan ajrala boshlayotgan vaqtlarda uning quyi bosqichda to‘xtalib qolmasligi uchun zaruriy bo‘lgan ruhiy quvvat payg‘ambarlar orqali dunyoga, har bir millatga yetib kelib turgan. Lekin chin evolyutsiyaning maqsadi insoniyatning faqatgina, payg‘ambarlar belgilab ketgan odob – axloq qoidalariga avtomatik tarzda rioya etishidangina iborat emas, balki, har bir inson komillik darajaga ko‘tarilishidam ham iboratdir. Bu hol Platon hikoya qilgan bir vaqtlar mavjud bo‘lgan «Atlantida» sivilizatsiyasining halokati misolida, shuningdek barcha dinlarda tilga olingan butun yer yuzining suv bosishi (Nuh toshqini) misolida hamda hozirgi davr geologiya, okeonologiya, fizika, ximiya, arxeologiya va boshqa soha olimlari kashf etayotgan avvalgi sivilizatsiyalar mavjudligidan dalolat beradigan faktik materiallar endilikda ma’lum bo‘lmoqda.

Jahonda mafkura maydoniga yangi texnologiyalarni tobora takomillashib kirib kelayotganligi, undan sog‘lom va nosog‘lom maqsadlarda foydalanishga urinishlar davom etayotganligini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekistonda ham texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo‘yicha kuchli milliy g‘oya, milliy dastur kerak degan dolzarb masala kun tartibiga qo‘yilmoqda. Jamiyatning milliy yuksalish g‘oyasiga ehtiyojini va ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda, davlat va jamiyat taraqqiyoti bosqichida barcha sohalarning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarga tayanib ish ko‘rishga undaydi.

Har bir jamiyat milliy g‘oyaga ehtiyoj sezadi. Bugungi milliy yuksalishga intilayotgan O‘zbekiston o‘z taraqqiyotini innovatsion rivojlanishda,fuqarolarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda, tashabbuskor bo‘lishda, mustaqil dunyoqarash va ijobiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda, o‘z mehnat faoliyatida barchadan ma’suliyatli va talabchan bo‘lishda, jamiyatdagi munosabatlarda adolat ustuvorligini ta’minlashga moyil bo‘lishda, korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasiz va qa’tiy bo‘lishda, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishda ko‘rishimiz mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda odamlarimiz, ularning ijtimoiy ongi, hayotga munosabati tobora o‘zgarmoqda, vatandoshlarimizning siyosiy yetukligi, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissi oshib bormoqda. Bularning barchasi mamlakatimizning taraqqiyot va farovonlik yo‘lidan izchil rivojlanib borishini, yangi marralarni qo‘lga kiritishimizni ta’minlayotgan qudratli harakatlantiruvchi kuch milliy tiklanishdan–milliy yuksalish sari degan ulug‘ maqsad bosh g‘oya sifatida maydonga chiqqanligida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy yuksalish g‘oyasiga e’tibor berilsa, bu milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘z ichiga olganini ko‘ramiz. Chunki, yagona Vatan tuyg‘usi, adolat-qonun ustivorligida va xalq roziligi tushunchalari asrlar davomida shakllangan milliy davlatchiligimiz tarixidan, ajdodlarimizning turmush tarzini va dunyoqarashini ifodalaydi. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish va innovasion taraqqiyot tushunchalari zamonaviy rivojlanishimizning umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Bugungi kunda dunyoda innovasion g‘oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo‘lmaydi. Insoniyatning eng katta boyligi – bu shu xalqning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyati hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, bozor munosabatlariga to‘liq o‘tish, xususiy mulk, xususiy tadbirkorlik erkinligiga yanada keng yo‘l ochish, barcha sohalarda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini faol qo‘llashga alohida e’tibor berilmoqda. Yer osti va yer usti boyliklaridan, inson resurslaridan to‘la foydalanish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolar qalbi va ongidagi yangi sifat o‘zgarishlari hayot darajasining yuqsalishi bilan uyg‘un holda kechmoqda.O‘zbekiston fuqarolarining huquq va manfaatlarini ular dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, davlat tomonidan ishonchli himoya qilish reallikka aylanib borayotgani, bu borada barcha zarur mexanizmlar ishga solinayotgani jamiyat a’zolarining o‘z xalqi va Vatanidan faxrlanish tuyg‘usini, davlatning adolat va qonuniy huquqlar kafolati sifatidagi salohiyatiga bo‘lgan ishonchini oshirmoqda.

Harakatlar strategiyasi asosida kechayotgan shiddatli islohotlar xalqning kelajakka ishonchini mustahkamlash, uni bunyodkorlik ishlariga safarbar qilish, jamiyatda uchrayotgan illatlar, xususan, loqaydlik, boqimandalik va korrupsiya kabi holatlarga qarshi faol kurashishga da’vat etmoqda.

Milliy yuksalish konsepsiyasining tadrijiy rivojlanish bosqichlari «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak»,«Inson manfaatlari hamma narsadan ulug‘», «Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi»,«Xalq bizdan rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi», «Adolat–qonun ustuvorligida», «Ma’naviyat bo‘lmagan joyda hech qachon adolat bo‘lmaydi!», «Insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash–odamiylikning eng oliy mezonidir» singari tamoyillar hayotga joriy qilinmoqda. Bu esa milliy g‘oyaning xalq irodasi sifatidagi maqomini oshirishga xizmat qilmoqda.

Milliy g‘oya har bir insonning o‘zini anglashi jarayonida shakllana boshlaydi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi esa uning o‘zini anglashidan boshlanadi.

Milliy g‘oya millat vakillarining iqtisodiy ahvoli, siyosiy qarashlari va boshqa jihatlaridan qat’i nazar, ularning yagona g‘oya atrofida birlashtirishni ifodalaydi. Shuning uchun ham milliy g‘oya mamlakatda barqarorlik, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo‘la oladigan muhim omil hisoblanadi. Shu ma’noda, shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash o‘zaro aloqador.

Milliy g‘oya millat ma’naviy salohiyatida evolyutsion tarzda rivojlanib boradi, milliy taraqqiyotning nazariy asosi sifatida millat vakillarini ko‘zlagan maqsadga intilishlarida ma’naviy ozuqa beradi. Milliy g‘oya, keng ma’noda, milliy o‘zlikni namoyon etadi. Milliy maqsad manfaatlarini ifodalaydi, shaxsni hozirgi zamon sivilizatsiyasida munosib o‘rin olishga undaydi, barqaror xavfsizlikni ta’minlash zaruriyatini anglatadi va taraqqiyotga yetaklaydi. U shaxsda O‘zbekistonga, uning kelajagiga bo‘lgan umumiy daxldorlikni his etish madaniyatini shakllantiradi va rivojlantiradi.

XULOSA

Milliy o‘zlikni anglash va milliy g‘oyaning obyekti hamda subyekti insondir. Ularni inson o‘zining ongi, tafakkuri va intellektual salohiyati bilan shakllantiradi. Ayni paytda, ular insonning ma’nan yuksalib, shaxs darajasida shakllanishiga xizmat qiladi.

Eng muhimi, bugun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan, jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilayotgan demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan muqarrar tus olgani xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongida ertangi kunga mustahkam ishonch uyg‘otmoqda.

Xulosa qilganda, jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun milliy g‘oya muhim hisoblanadi. Yuksak marralarni ko‘zlagan har qanday davlat o‘z milliy g‘oyasini zamon talablari va shaxslar dunyoqarashining yuksalishi bilan bog‘lab rivojlantirib borish ehtiyojidan kelib chiqadi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish, xalqimiz turmush darajasini yuqori bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy-siyosiy,

iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni maqsad qilib olgan bugungi O‘zbekiston uchun ham milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichida milliy yuksalish g‘oyasi hayotiy zaruratdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси// https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn

2. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент. Ўзбекистон. 2018. – Б 252.

3. Nasafiy Aziziddin. Zubdat ul-haqoyiq. - Toshkent. Kamalak. 1996. – B 29.

4. Фалсафа асослари. – Тошкент.Ўзбекистон, 2005. – Б. 3.

5. Суванов И. А.Шахс маънавиятини юксалтиришда миллий ғоя ва ўзликни англаш диалектикаси.фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2018. – Б 12.